

## YANGIBOZOR (XORAZM) SHEVASI SAVDO MUNOSABATLARIDA QO‘LLANILADIGAN BA‘ZI UY-RO‘ZG‘OR BUYUMI NOMLARI

**Komilova D.G‘.,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti  
isobekjumaniyazov@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm shevalari kimlar tomonidan tadqiq qilinganligi, shevaga xos xususiyatlar, sohaviy leksikaning ahamiyati, shuningdek Yangibozor (Xorazm) shevasida savdo jarayonida qo‘llaniladigan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari dialektologik jihatdan tahlil qilingan. Shevadagi so‘zlarning ma‘no ko‘lami, ularning adabiy tildagi muqobillari hamda semantik o‘ziga xosliklari aniqlangan. Shevaga oid so‘zlar adabiy til bilan qiyoslanib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yordamida shevaga oid so‘zlarning o‘xshash hamda farqli jihatlari jadval ko‘rinishida izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm shevasi, Yangibozor, savdo-sotiq, uy-ro‘zg‘or buyumlari, dialektologiya, adabiy til.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются исследователи хорезмских диалектов, особенности диалекта и значимость отраслевой лексики. На основе диалектологического анализа изучены названия предметов домашнего обихода, используемых в процессе торговли в Янгибазарском (Хорезмском) говоре. Определены семантические рамки слов, их соответствия в литературном языке и смысловые особенности. Путем сопоставления диалектных слов с литературным языком и использования «Толкового словаря узбекского языка» в виде таблицы раскрыты их сходства и различия.

**Ключевые слова:** Хорезмский диалект, Янгибазар, торговля, предметы домашнего обихода, диалектология, литературный язык.

**Annotation.** This article examines by whom the Khorezm dialects have been studied, their distinctive linguistic features, and the significance of specialized (sectoral) vocabulary. In addition, the names of household items used in trade processes in the Yangibozor (Khorezm) dialect are analyzed from a dialectological perspective. The semantic scope of dialectal words, their equivalents in the literary language, and their semantic specificities are identified. Dialectal vocabulary is compared with the literary language, and with the help of The Explanatory Dictionary of the Uzbek Language, the similarities and differences of dialectal words are explained in tabular form.

**Keywords:** Khorezm dialect, Yangibozor, trade and commerce, household items, dialectology, literary language.

**Kirish.** O‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Har bir hududning lahja va shevalari shu joyning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Xorazm dialektal zonasi ham ana shunday rang-baranglikka ega. Bu hudud shevalari nisbatan ko‘p o‘rganilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Bu shevalarni o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bunga misol qilib nemis tilshunosi Y.Budensning “Xiva tatarchasi” maqolasini keltirishimiz mumkin [4;269-331]. Keyinchalik Xorazm shevalarini o‘rganish hamda ilmiy asosda tasnif qilishda Y.D.Polivanovning alohida o‘rni bor [1;114]. G‘ozi Olim Yunusovning ham “O‘zbek lahjalarini o‘rganishda bir tajriba” nomli risolasida Xorazm shevalari alohida Xiva-Urganch shevalari sifatida tasnif qilinadi [1;116]. Rus tilshunos olimi A.K.Borovkov, V.V.Reshetovlar ham o‘z tasniflarida Xorazm shevasi xususida ma‘lumot beradilar [1;116-119]. F.Abdullayev esa “O‘zbek tili Xorazm

shevalarining fonetikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini hamda Xorazm shevalaridagi soʻzlarni alohida lugʻat holida tartiblagan monografiyasi mavjud [1;347]. Shuningdek, Xorazm shevalari yuzasidan Y.Jumanazarovning “Oʻzbek tili janubiy Xorazm (oʻgʻuz) dialektining sintaktik qurilishi” kitobi shevalar sintaksisini oʻrganishga doir dastlabki qadam hisoblanadi [6;18]. A.Ishayevning “Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalari” asarida Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek tili qipchoq va qisman oʻgʻuz shevalarining ayrim fonetik-morfologik hamda leksik xususiyatlari qipchoq guruhiga taalluqli qozoq, qoraqalpoq, noʻgʻay; tatar, boshqird; qorachoy-balqar, qumiq, qarayim, qrim-tatar tillariga qiyoslangan holda tadqiq etilgan. Ish oxirida Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalarining qisqacha lugʻati berilgan. Ushbu lugʻatdagi ayrim soʻzlar Yangibozor (Xorazm) shevasidagi savdo munosabatlari jarayonida ham qoʻllanilishi aniqlandi. [5;176], X.Boboniyozovning “Janubiy Xorazm qipchoq shevalarining fonetik-morfologik xususiyatlari” dissertatsiyasida hudud shevalarining fonetik-morfologik xususiyatlari oʻgʻuz shevalari taʼsirida aralash xususiyat kasb etganligi aniqlanadi [3;20]. E.Oʻrazovning “Janubiy Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalari” asarida ushbu hududda istiqomat qiluvchi oʻzbeklarning tili, ularning oʻziga xos dialektologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan oʻrganishga bagʻishlangan [10;135]. O.Madrahimovning “Oʻzbek tilining oʻgʻuz lahjasi leksikasi” asari asosan Xorazm shevalari guruhiga kiruvchi oʻgʻuz shevasining soʻz boyligini tahlil qilishga bagʻishlangan [7;49]. Sh.Norboyevaning “Xorazm shevalari leksikasining onomasiologik tadqiqi” ishida Xorazm shevasiga xos soʻzlarning etimologik va maʼno koʻlami tadqiq etiladi [8;74]. Yuqoridagi barcha tadqiqot ishlari ushbu hudud shevalarini oʻrganishda diqqatga sazovordir.

**Muhokama.** Yangibozor shevasi ham Xorazm dialektal zonasining tarkibiy qismi boʻlib, ushbu hudud F.Abdullayev “Oʻzbek tili Xorazm shevalarining fonetikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasida aralash tipdagi qipchoq-oʻgʻuz shevalari qatoriga kiritadi [2;20]. Ushbu maqolada hududdagi savdo leksikasiga doir baʼzi uy-roʻzgʻor buyumlari nomlari adabiy tilimiz bilan qiyoslanadi. Savdo jarayonlari xalq hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Unda tilning amaliy qoʻllanilishi eng faol namoyon boʻladi. Shundan kelib chiqqan holda Yangibozor (Xorazm) shevasi savdo munosabatlaridagi uy-roʻzgʻor buyumlari nomlari maqolamiz obyekti boʻlib xizmat qiladi.

**Sihäk** – mahsulotlarni turli xil shaklda toʻgʻrash uchun ishlatiladigan, temir yoki plastmassadan boʻlgan uy-roʻzgʻor buyumi. *Gaširni sihäkdä sihäp salat etsä böladi. Turli tışlari bar amdallı. (Yang.shev.);*

**Qirgʻich** – 1 Meva va sabzavot etini qirish uchun ishlatiladigan tishli roʻzgʻor buyumi. *Qirgʻich bilan qovoq qirmoq. Yoshlar kabob chaynashyapti, men boʻlsa, qovunni qirgʻichda qirib yedim. I.Rahim, Ixlos [9;304].*

**Satıl** – goʻsht qiymalashda ishlatiladigan, pichoqdan kattaroq, kichikroq boltacha, ogʻir temir jihoz. *Göşdi satıl bilän miydälä (Yang.shev.).*

**Čanaq** – xamir qilishda, mahsulotlarni yuvishda, to‘g‘rab aralashtirishda foydalaniladigan, lagandan kichikroq temir yoki plastmassa idish. *Čanaqla nädän,maņa temirdän bölyan čanaq tavip beriņ, ölmagajsiz, arzan etipäm beräqojıñ (Yang.shev.)*.

**Kasa** – suyuqliklarni solib ichish uchun ishlatiladigan buyum. *Paxtagulli kasalar hičäm modädän qamidi. Qörqmaj alavariņ, čajnikam qošip bärämän (Yang.shev.)*.

**Piyola** – tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan, kosadan kichik, taglikli idish (asosan choy ichish uchun ishlatiladi).Chinni piyola. Sopol piyola.O‘n uch kundun beri tuz totmagan o‘sha kuni yarim piyola tovuq sho‘rva ichdilar. *K.Qahhorova, Chorak asr hamnafas. Azizxon qo‘lidagi piyolani bo‘shatib, xayrlashib chiqib ketdi. S.Ahmad, Yfq [9;256]*.

**Lavapkasa** – piyoladan katta, asosan, suyuq va boshqa xil ovqatlarni suzish uchun ishlatiladigan idish. *Lavapkasalardi jaxšilap taxlamasaņ ömbirap ketädi, havardan böl šünä, čätinäq tuširip gäp eşitädovün bölip jürmä, qizim (Yang.shev.)*.

**Kosa** – 1 Piyoladan kattaroq, asosan suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish. Bir kosa sut. Ikki kosa qatiq. *[Yo‘lchi]..mehmonlar uchun dam yasog‘lik patnuslar, dam choy..dam kosalarda sho‘rvalar tashishdi.Oybek,Tanlangan asarlar. Juvon bo‘shagan chinni kosalarni yig‘ishtirib, oshxonaga chiqib ketdi. S.Anorboyev, Oqsoy.Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go‘jaga qatiq ham rang kirgiza olmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotin esa hanuz bir kosani yarimlata olmas edi. A.Qahhor, Anor [9;410]*.

**Čölpaq** – chuchvara, lag‘mon va shu kabi suvda qaynatib pishiriladigan mahsulotlarni suvdan suzib olish uchun ishlatiladi. *Čölpaq bilan bäräklärdi almasaņ dijtilip ketädi; Minav čölpayıñizi dästäsi qaravlırayı barma, avval ayanim bir ajam jetmädi, šuni sizdän avadımav (Yang.shev.)*.

**Chovli** – novda yoki simdan to‘qilgan, ugra, shilpildoq va sk.k. xamir ovqatlarni suzib olish uchun ishlatiladigan cho‘michsimon ro‘zg‘or asbobi.Cho‘p chovli.Sim chovli [9;502].

**Tünčä** – choy qaynatish uchun ishlatiladigan mis yoki cho‘yandan yasalgan buyum. *Tünčädä qajnayan čajni tämi ničikdir bir mazzi böladi, šunama ja qarrilar härdim bir tünčädä qajnayan čajni içämiz divärädila (Yang.shev.)*.

**Chovgun** – o‘tda choy qaynatish uchun moslangan idish, choydush, qumg‘on. Mis chovgun. Cho‘yan chovgun. *Chovgunda choy qaynatmoq.[Sevargul] Ro‘molchani suvga tutib, obdonishqaladi, so‘ng ko‘hna mis chovgunni to‘latib, jo‘mrakni mahkamladi.N.Qilichev,Chig‘irıq [9;502]*.

**Tañqan** – plastmassa yoki cho‘yandan yasalgan suv saqlash uchun ishlatiladigan,ko‘zaga ham qumg‘onga ham o‘xshaydigan, yuvinish,qo‘l yuvish uchun ishlatiladigan ro‘zg‘or buyumi. *Nedigän qimmat tañqanla, prastöjrayıñnan alsammakan äsä äj (Yang.shev.)*.

**Tikač** – non yopish jarayonida ishlatiladigan, non shishib ketmasligi uchun ustiga tikač bilan ishlov beriladi. Uning temir tishlari bo‘lib, turli gulli va naqshli shakllarda bo‘ladi. *Nanni tikačlavar, čišip ketsä pišmäj qaladi, hadavur basipraq etsän jaxširaq čiqadi naniñ, šu učen miqijatlap etmäkni ijrän, qizim (Yang.shev.)*

**Chakich** – nonni chakichlash uchun dastali yog‘och kallakka bir tekisda chim qoqib yoki parranda patlarini dastalab bog‘lab yasalgan uy-ro‘zg‘or asbobi. Sim chakich. Pat chakich. *Tandirda yog‘liq xamir asta vijirlab, bo‘rtib, chakich o‘rinlari darhol shakllandi. H.G‘ulom, Toshkentliklar [9;447].*

**Räpidä** – non yopish jarayonida qo‘llaniladigan, usti mato bilan qoplangan, dumaloq shaklda yasalgan, nonni tandirga yopish uchun ichiga qo‘l kiradigan maxsus joyga ega mahsulot. *Räpidädäji nanni suvlavarip, sön tandira urış käräk, šunda arqası japišmidi (Yang.shev.)*

**Rapida** – 1. Tandirga non yopish uchun ishlatiladigan, matodan tikilgan, to‘garak shakldagi qalin qo‘lqop. [Mehrixon] *Rapidadagi nonning yuziga suv sepib, savatga tashladi. S.Ahmad, Qadrdon dalalar [9;350].*

**Käpčä** – axlatlarni yig‘ib olishda ishlatiladigan buyum bo‘lib, uning plastmassa va temirdan bo‘lgan turlari savdoda mavjud. *Bazardan käpčä alsaq jaxši idi, nävčän desäniz aryişi dästäsinnän ketti, haziryi kündä dästäsi uzunlari čiqipti, šünnän bir alip körük qani, sipšasam özi bilan turadan äkän (Yang.shev.)*

**Xokandoz** – chang-tuproq, axlat yig‘ishtiradigan (kurakcha)/ Olov, kul, ko‘mir, supurindi va sh.k.ni olish, tashish uchun ishlatiladigan dastali asbob; olovkurak. *Xosiyat xola xokandozda pista ko‘mir keltirib, samovarga tashladi. R.Fayziy, Cho‘lga bahor keldi. Uning [kampirning] qarshisiga supurgi va xokandoz ko‘targan bir ayol shaxt bilan kelardi. O‘.Umarbekov, Yoz yomg‘iri [9;405].*

**Sarxum** – suv ichish uchun ishlatiladigan jihoz bo‘lib, dastali va plastmassa, temir yoki alyuminiydan yasalgan bo‘ladi. Hozirda *kürškä* variantida ham ishlatilish holatlari bor. *Sarxumda suvdi köpraq äpke, čöllap öldik, tezläšsänä bir, čäqqän-čäqqän böl (Yang.shev.)*. **Krujka** – metall, chinni yoki plastmassadan yasalgan, stakan shaklidagi dastali idish. Alyuminiy krujka. Bir krujka suv. *Birinchisiga qo‘ziqorin solingan kartoshka sho‘rva, ikkinchisiga ezilgan kartoshka bilan bir burdadan go‘sh, uchinchisiga bir krujkadan sut tarqatdi. I.Rahim, Chin muhabbat [9;418].*

**Šamalpärrik** – xona haroratini yaxshilash uchun ishlatiladigan moslama. Temir to‘siqlar ichida pirpirak aylanib, shamol haydaydi, shu bois ham yoz mavsumida xaridorgir bo‘ladi. *Känsäner ayannan agar šu šamalpärrik alyanam arzanraq tüšädikän, qajtip-qajtip ber balam, pensämnän alayöjin devädimdä (Yang.shev.)*

**Ventilyator** – [lot. Ventilator — yelpig‘ich; sovuruvchi, shamollatuvchi] Yopiq binodagi havoni yangilaydigan, havoni tozalab turadigan, mashina qismlarini sovitadigan shamolparrakli mexanizm. Elektr ventilyator. *Tajribali parmakash edi-yu, falokat bosib,*

qo'li ishlab turgan dizelga kirdi-yu, ventilyator parraklari ikki barmog'ini uzib ketdi. *Gazetadan* [9;455].

**Yali** – uyga yoyiladigan gilam bo'lib, savdo jarayonida uning turli xillari sotiladi: *türkmän yali, türkmän peçät yali. Yaliçilardan yali alsañ jur, bazara barjatırman, senäm äpketin, jüräsänmi ıssıda. Nişap äkkilärmiz vuni, dolonom ullı axır barbır ullısinnan aliş kärke ayana körä (Yang.shev.)*.

**Gilam** – [f.tuksiz gilam, palos] 1. Odatda jun, ipakdan to'qilib, yerga, polga to'shaladigan yoki bezak uchun xona devorlariga osib qo'yiladigan uy jihozi; badiiy to'qimachilik buyumi. Ipak gilam. Turkman gilami. *Osti taxta pol bo'lgan holda, polning ustiga qizil gilam tashlangan, ikki yon devorga ham qizil gilamchalar qoqilgan edi. S.Ayniy. Qullar. Asl gilamlar to'shalgan bu xonaning to'rida hozir Ahmad Tanbal o'tiribdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar* [9;501].

**Badija** – asosan quyuc ovqatlarni suzishda ishlatiladigan uy-ro'zg'or buyumi bo'lib, likopchadan katta, aylana shakldagi, chuqurroq sopol idish. *Badijalarıñizi ädennij satiladavuni jöqman, quri badija alsam böldi idi, qalyani sarasapında jetarli rözgarda (Yang.shev.). Bodiya – katta mis kosa; Tagi baland, qirg'og'i tik, katta sopol idish (lagan). Bodiya...Xorazm kulolchiligida qadimdan keng tarqalgan. "O'ZME" [9;295]*

**Tavah** – badijadan sal yuzaroq bo'lgan sopol idish, bu buyum ham ovqat va boshqa narsalarni solishda ishlatiladigan narsa. *Tavahqa salsañ jajdim bölyani için darrıiv suvidi, lakın qizip ketsä havarli bölisan pişip qojma iş etkän kişi bölip (Yang.shev.)*.

**Lagan** – f.-tog'ora, idish; shamdon] 1. *Quyuc taomlar solish uchun mo'ljallangan, tarelkadan katta yassi idish. Mis lagan. Sopol lagan. Chinni lagan. Anvar o'rta dasturxon yozib, ikki lagan manti chiqarib qo'ydi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon* [9;483].

**Jensä** – non yopishda ishlatiladigan buyum bo'lib, undan pishgan nonlarni tandirdab uzib olishda ishlatiladi. Tandirga qo'l tirsakkacha kiradigan holatlar inobatga olinib uzunroq qo'lqop shaklida issiqqa chidamli matodan tikiladi. *Jensäni äpkä dim bir zöri bär, alaman desäniz qajtip berämän (Yang.shev.)*.

**Yengsak; yengcha** – shv. *Yenglik. Oshxonada Buniso xola bo'z yengsak bilan tandirdan jazillagan zog'ora nonni uzib olar edi.Oybek, Zumrad. Onam non yopadi bo'g'riqib-bo'rtib, dam-badam kuyadi qo'li yengsakda. Mirtemir; Onasi tandir oldida qo'liga yengcha kiyib, loladek qip-qizil kulcha betiga suv sepyapti. S.Ahmad, Suvlar oqib ketdi. Sojidaxon tutayotgan yengchasiga kosadagi suvdan sepib o'chirdi. S.Zunnunova, Go'dak hidi* [9;14].

**Savah, nah, čizim** – narsalarni tikish hamda bog'lash uchun ishlatiladigan iplarga nisbatan Xorazm shevalarida qo'llaniladigan so'zlar. Bu so'zlar orasida ma'no nozikligi mavjud. Masalan, *savah* – kiyim tikishda ishlatiladigan ipdan ko'ra mustahkamroq bo'lgan, uzilishi qiyin ip bo'lsa, *nah*- aynan kiyim tikish jarayonida ishlatiladigan ipni bildiradi. *Čizim* esa qalinroq, mustahkam kanop, chilvir, matodan qilinadigan, bog'lash uchun foydalaniladigan buyum. *Savah bilan kavışini tiktirip qoj, äldin qiş bölsa, navvi*

*kijämän dep jürmä suvuqta; Nahnî xijli- xijlisinnan alip keliñ, atasî; Čizimni äppervär, balam. Jüzümlärni bajlap, kömamiz (Yang.shev.).*

**Ip** – 1. Paxta, xom ipak, zig‘ir, jun va sh.k. tolasidan ingichka qilib yigirilgan yoki yigirilmagan tikuv, to‘quv material. Pishiq ip. Xom ip. Mashinaga ip solmoq. Ip gazlama. [Alioxun] *Bir necha minutdan so‘ng turib.. ignani oldi, qayerdandir ip topib, eski, seryamoq ko‘ylagining yirtig‘ini tikishga o‘tirdi. Oybek, Tanlangan asarlar. Buni sotib, charm, ip, sirach, mum singari kosibchilik uchun kerakli ashyolarni oladi. (Oybek, Tanlangan asarlar).* 2. Umuman, bog‘lash, o‘rash va sh.k.maqsadlar uchun qo‘llanadigan narsa (mas.,shnur, kanop, chilvir). Botinka ipi. Mard yigit qo‘lida ajdar o‘ladi, Nomard odam ipni ajdar biladi. Maqol. Tog‘asi, so‘yilgan qo‘yning ipini oldi-yu, shoshib, tashqariga chiqib ketdi. M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o [9;222].

**Čäqqi** – kichkina pichoqcha bo‘lib, cho‘ntakda olib yurish uchun qulay hisoblanadi. U qayrilib tig‘ qismi g‘ilofiga kiritilib qo‘yiladi. Čäqqiñ bölsa kisañda ver-berä baryanda qijnalmissan, zippa čiqarip islatäväräsän (Yang.shev.).

**Qalamtarosh** – [qalamni tarashlovchi] Tig‘i sopi ichiga qayirib, yopib qo‘yiladigan pichoqcha; pakki. Ikki tig‘li qalamtarosh. [Sarimsoq ota] Sarg‘ish belbog‘iga qirg‘iy burniga o‘xshash qalamtarosh, soqoltaroq ham osib olgan. Mirmuhsin, Chiniqish [9;225].

**Sülgi** – qo‘l artish uchun ishlatiladigan, matodan bo‘lgan buyum. Sülgini üllili – kiččili alavariš kārāk, uj degändä kārāk bölavaradi ( Yang.shev.).

**Sochiq** – II. Yuz-qo‘l yoki idish-tovoq artish uchun ishlatiladigan buyum. Qo‘l sochiq. Qozon sochiq. [Quadratjon] Jo‘mrakda qo‘lini yuvayotgan adasiga uydin sochiq olib chiqdi. Mirmuhsin, Umid. Xolisa duxovkadagi dimlangan tovuqni ag‘darib qo‘yib, qo‘llarini sochiqqa artdi. S.Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi [9;558].

**Sipsa** – supurish uchun ishlatiladigan, qo‘l mehnati yordamida maxsus o‘simlikning qilinadigan uy-ro‘zg‘or buyumi. Sipsani tik qojmasliq kārāk. Üjä apat keltirädi didilär jaši ullilar (Yang.shev.).

**Supurgi** – I supurish-sidirish, tozalash uchun burgan, shuvoq, makkasupurgi va sh.k.dan dastlab bog‘lab yasaladigan ro‘zg‘or buyumi. Shuvoq supurgi. Cho‘ltoq supurgi. U taxmondagi, shiftlardagi islarnin supurgi bilan olib, polni ikki qayta yuvdi. Mirmuhsin, Umid. Yangi supurgini ishlatishdan oldin sovunli qaynoq suvda ho‘llab olsangiz, ko‘pga chidaydi. “Saodat”. Xotin (yoki xotinak) supurgi Bandi qisqa, odatda uy supuriladigan supurgi. Erkak supurgi Bandi uzun supurgi. Chol g‘ira-shirada uydin chiqardi. Qo‘lida ketmon sopidek uzun sopli erkak supurgi, chelak. O‘.Umarbekov, Dutor. Qorovul supurgi Uzun yog‘och dastali katta supurgi [9;589].

**Silapča** – plastmassa yoki alyuminiydan tayyorlanadigan, qo‘l yuvganda ishlatiladigan, tog‘oradan kichikroq, bezakli uy-ro‘zg‘or buyumi. Qöllardi silapča tutip jüvdirip čiq (Yang.shev.).

Yana shuni keltirib o‘tishimiz mumkinki, yuqorida keltirib o‘tilgan nax so‘zi Yangibozor (Xorazm) shevasida omonimlik hosil qiladi,ya’ni nax so‘zi naqd ma’nosida

ham qo'llaniladi: *Pilini nax baraman (Yangibozor sh.)* tarzida. Čaqqi so'zi qadimgi xorazmiy qatlamiga mansub ekanligini A.Ishaevning maqolasida qayd etilgan [5;65].

**Xulosa.** Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rinib turibdi-ki, Yangibozor (Xorazm) shevasi savdo jarayonida ishlatiladigan uy-ro'zg'or buyumi nomlari adabiy tilimiz bilan ayni shaklda, ba'zi so'zlar esa shaklan, ba'zi so'zlar mazmunan va ba'zilari tamoman farq qiladi. Bundan biz shevadagi so'zlar bugungi kunda ham faol qo'llanayotgan xalq etnografiyasi bilan bog'liq jihatlarning ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, shevalarni o'rganish bizga, nafaqat ularni lingvistik korpus yaratish uchun manba sifatida qo'llashga, balki tarixiy merosimizning bir qismi bo'lgan bunday so'zlarni asrab-avaylashga hamda o'rganishga imkon beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021. – 347 b.
2. Абдуллаев Ф. Фонетика Хорезьских говоров узбекского язык. Дисс...фил.н. – Ташкент, 1961. – 58 b.
3. Бабаниязов Х. Фонетико-морфологические особенности кипчакских говоров Южного Хорезма: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1966. – 50 b.
4. Budenz József. Khivai tatárság // Nyelvtudományi közlemények. A Magiak Tudományos Akadémia Nyelvtudományi bizottsága. Negyedik kötet. – Pesten, 1865. – 331 b.
5. Ишаев А. Мангит шеваси лексикаси тарихидан // Узбек тили ва адабиёти масалалари. 1960. – 141 б.
6. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 156 б.
7. Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Ҳазорасп шевасининг морфологик хусусиятлари: Фил.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1961. – 40 б.
8. Мадрахимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент, 1973. – 120 б.
9. Norboyeva Sh. Xorazm shevalari leksikasining onomasiologik tadqiqi: Filol.fan. dok...diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 270 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2006-2008. – 3290 b.
11. Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978. – 140 б.